

# ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

## “FALSAFA”



### 3-Ma`ruza

## YANGI VA ENG YANGI DAVR FALSAFASI

Reja:

1. Yangi davr falsafasining rivojlanishidagi ijtimoiy-siyosiy sharoit.
2. Yangi davr G'arb va SHarq falsafasidagi asosiy muammolar.
3. XVIII ASR Yevropa falsafasining ma'rifiy xususiyatlari.
4. XX-XXI asr G'arb falsafasi. XX asr o'zbek falsafasi.

**Aripova Zulfiyaxon**

Ma'lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo'llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og'ir yo'qotishlar davri ham bo'ldi. Bu esa falsafiy fikrning taraqqiyotida o'z aksini topdi, uning turli yo'nalish va oqimlari shug'ullangan muammolarning salmog'i, maqsad-muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma — xil oqim va yo'nalishlar mavjud. O'z navbatida bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo'lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg'unligi, demokratik erkinliklar, inson qadri, biror ta'limotni mutlaqlashtirmaslikdir. Bag'rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta'limotlar rang-barangligini ta'minlaydi.

An'anaviy falsafada, turli g'oyaviy tizimlarga bo'linishiga qaramay, muhim muammolarni hal etishda ma'lum bir umumiylik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko'p xilligi va o'ziga xosligi, turli-tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

An'anaviy falsafada aql — inson mohiyatining belgilovchisi, deb talqin etilgan bo'lsa, endi ratsionalizmga qarshi insonning mavjudligi (ekzistentsializm) muammolari, hamda uning noratsional mohiyati ilgari surila boshladi. Ya'ni ilgari ma'rifatparvarlik g'oyasi ustuvor bo'lsa, endilikda ko'proq inson huquqlariga e'tibor kuchayib ketdi. Falsafa g'uyoki, mavhumlikdan aniqlik tomon bordi, umumiy emas, aniq-ravshan masalalarni hal qilish boshlandi.

An'anaviy falsafada hodisalar mexanika qonunlari asosida tushuntirishga harakat qilingan bo'lsa, endi bunday tahlil doirasidan chetda qolgan muammolar o'rganila boshlandi.

Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida, nomlariga «**neo**», ya'ni yangi, zamonaviylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Fanning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilash va unga nisbatan munosabatga qarab, zamonaviy falsafiy ta'limotlarni asosan ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Ulardan biri — **stsientizm** (lot scientia — fan) ya'ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Stsientizm g'oyalari, neopozitivizm, texnologik determinizm kabi ta'limotlarning asosini tashkil etadi.

Ikkinchisi — **antistsientizm**, ya'ni fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Bunday dunyoqarash ekzistentsializm, frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim Klubining bir qator tarmoqlarini, ba'zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi. Antistsientizm ilm-fan taraqqiyotining natijalarini nazorat ostiga olish, bu masalada jamiyat hayotini xavf ostiga qo'ymaslik talabi bilan bog'liqdir.

Antistsientizmning ayrim o'ta ashaddiy namoyandalari fan-texnika taraqqiyotini tamoman to'xtatib qo'yish g'oyasini ham ilgari suradilar. Umuman olganda, XX asr falsafasida bir-biriga muqobil bo'lgan yo'nalishlar ratsionalizm va irratsionalizm, antropologizm va naturalizm, stsientizm va antistsientizm, materializm va idealizm o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko'pchilik nemis olimi **Artur Shopengauer** (1788 — 1860) qarashlarini tilga oladi. Shopengauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodaning namoyon bo'lishi, irodani esa ongsiz ko'r-ko'rona intilish tarzida tushunadi. Maxluqotlarning instinktlari, xatti-harakatlari — irodaning namoyon bo'lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo'lgan irodaning natijasidir. SHuning uchun inson mohiyati irrotsional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson hayoti doimo aylanib turgan iroda g'ildiragiga bog'liqdir.

Shopengauer ta'limotini davom ettirgan nemis faylasufi **Fridrix Nitshe** (1844-1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo'lgan irodadir.» Nitshe inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlikni birlashib ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning diyorimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta'limotini o'rganib yaratgan «Zardusht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. U o'z ortidan irodasiz kishilar ommasini yetaklashga qodir bo'lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdori bo'lgan. Nitsshening tsivilizatsiya va madaniyatning so'nishi va barham topishi to'g'risidagi g'oyasiga asoslanib, 1918 yilda G. SHpengler «Evropaning so'nishi» degan asarini yozadi.

O'tgan asr oxiri olimlari ijtimoiy inqiroz va ma'naviy turg'unlikdan chiqishning yo'lini Farbda klassik falsafiy merosga murojaat etishda va uni qayta tiklashda ko'rdilar. SHu zaylda «Orqaga Kantga» shiori ostida neokantchilik, «Orqaga Hegelga» shiori ostida esa neohegelchilik paydo bo'ldi.

SHu bilan birga, falsafaning klassik ildizlarini saqlab qolishni diniy oqim bo'lgan neotomizm ham yoqlab chiqdi. Neatomizm shu bugunga qadar ham o'z mavqeini yuqotmagan bo'lib, katolik cherkovi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bunda ayniqsa Rim papasi rahbarlik qiladigan Vatikanning faoliyati muhim o'rin tutadi.

**Neotomizm** — XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, u o'rta asrlardagi (XIII asr) Foma Akvinskiyning ta'limotini qaytadan tikladi. U (neo — yangi, tomizm — «foma», transkripsiyada «toma» bo'lib o'zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta'limoti demakdir. Bu ta'limotga ko'ra, ilm va e'tiqod o'rtasida to'la muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular bir-birini to'ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan xaqiqat.

Neotomizm vakillari fikricha, ilm yetmagan joyda e'tiqod qo'llanishi kerak. Lekin bu e'tiqod ko'r-ko'rona, shunchaki ishonch bo'lmay, balki mantiqan teran anglangan e'tiqod bo'lishi kerak. Xudoning mavjudligini falsafa turli mantiqiy usullar orqali isbot qilishi lozim. SHunday qilib, falsafaning vazifasi dinga xizmat qilishdan iboratdir.

Neotomistlar dunyoni, jamiyatni xudo yaratgan, jamiyat taraqqiyoti xudoning rejasi asosida boradi, deydilar. Diniy teologiya oqimi bo'lganligidan neotomizm albatta, ilohiy qadriyatlarni ustuvor qo'yadi. Ammo u din va uning jamiyatdagi o'rniga, o'zining nomi kelib chiqishiga sabab bo'lgan, Foma Akvinskiy zamonidan farqli yondoshadi. Fomadan keyingi davr Yevropada xristianlikning sofligini saqlash g'oyasi, asta-sekin mutlaqlashib, o'rta asr aqidaparastligining ma'lum ko'rinishlaridan biri-inkvizitsiyaga olib kelgan edi. Bu esa hurfikrlilik, ilm-fandagi yangilikka qarshi kurashga aylanib ketgan edi. Lekin inson huquqlari, fikr erkinligi demokratiya belgisiga aylangan XX asrda bunday o'taketgan aqidaparastlikka o'rin yo'q. Neotomizm hozirgi tsivilizatsiyali dunyoda tsivilizatsiyalashgan ta'limot sifatida maydonga chiqmoqda. O'z navbatida bu demokratiya ustivor bo'lgan hayot tarziga muayyan darajada mos keladi.

**Neokantchilik** XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I. Kant o'z davrida qo'ygan ilmiy bilishning umumiyligi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta'limotga ko'ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o'zi uchun eng oliy maqsaddir. SHunday ekan, inson hayotidan kimdir o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o'zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamotchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, unga zid ish qilmaydigan, ammo o'z haq-huquqlarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar.

XX asrga kelib, fan va texnika taraqqiyoti bilan ilmiy tafakkur va til muammolarini falsafiy tahlil qilishga qiziqish nihoyatda ortdi. Bu yo'nalishda ishlayotgan eng yirik oqimlarga neopozitivizm, strukturalizm va germenevtika kabi falsafiy qarash namoyondalari misol bo'ladi.

**Neopozitivizm** oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi; pozitiv — ijobiy degan ma'noni anglatadi. Nepozitivizm G`arbda XIX asrning 20 — yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa — ob'ektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak.

Kont falsafaning o'zi mustaqil ravishda ob'ektiv dunyo to'g'risida hech qanday aniq bilimlar berishi mumkin emas, u shu paytgacha yig'ilgan bilimlarni formal logika qonunlari asosida tahlil etishi va qayta baholashi, uni «absolyut g'oya, ruh» to'g'risidagi ortiqcha fikrlardan tozalashi kerak va yangi falsafani yaratishi kerak, deb ta'lim bergan.

Neopozitivistlar **verifikatsiya printsiptini** ilgari suradilar (lot. Veritas — xaqiqat.) ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu printsiptin keyinchalik inkor etildi.

Shundan so'ng **postpozitivizm** (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili K. Popper **falsifikatsiyalash metodini** ilgari surdi. Bunga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning xaqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning xaqiqiyligini mantiqiy — lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60 — 70 yillariga kelib, neopozitivizmning mavqei kamayib, asosiy o'ringa strukturalizm va germeneytika chiqdi.

**Strukturalizm** (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasi bilish uning ob'ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. Masalan Levi-Stross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to'la muvofiq keladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta'limotga ko'ra shunday printsiptga, umumiy mantiqqa ega.

**Germenevtika** — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalariga asosiy diqqatini qaratadi.

Jamiyat, bu ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. SHuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma'nosini, mohiyatini kishilar o'rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat. Bu oqim vaqillari SHleyermaxer va Dil'tey fikricha, biror bir tarixiy manbaning to'g'ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to'la his etishi, tushunishi bilan bog'liq. Hozirgi davrda bu ta'limotning ko'plab tarafdorlari mavjud.

XX asrning 30 — yillariga kelib «**ekzistentsial falsafa**» rivojlandi. Ekzistentsiya — tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzestentsializm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi. Bu muammolarning talqini, ayniqsa, ijodkor ziyolilar o'rtasida ommaviy tus oldi. SHuning uchun ekzistentsial falsafa bu davrda eng keng tarqalgan oqim bo'lib qoldi.

Ekzistentsializm vakillari asosan ikki yo'nalishga bo'linadilar. Biri — dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspers, Marselb) bo'lib bunday bo'linish nisbiydir.

Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o'z mohiyatini o'zi erkin belgilaydi, uning kim bo'lib yetishishi faqat uning o'ziga bog'liq. SHu ma'noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o'xshatiladi. Erkinlik insonning o'zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi. Insonga berilgan imkoniyatlarni tanlash nihoyatda mas'uliyatlidir, chunki bunda inson o'zi, boshqalarni hamda uni o'rab turgan olamni ham qayta yaratadi.

Diniy ekzistentsializm vakillari Yaspers va Marselb fikricha, inson o'z erkin faoliyati davomida xudoga qarab unga yetishish uchun, kamolot tomon harakat qiladi. Haqiqiy erkinlik insonga tahlikali onlarda, tashvishda, yolg'izlikda namoyon bo'ladi. «ahlika, mas'uliyat sof erkinlikning o'zidir, faqat shunday sharoitda inson o'zini to'laligicha anglaydi. Hayot va o'lim, qo'rqinch, dahshat tushunchalari bu ta'limotning markaziy tushunchalaridir. Ekzistentsialistlar fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir.

Yangi zamon falsafasining yana bir oqimi **pragmatizm** AQSHda keng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foйда» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Pragmatizm ta'limotining yirik namoyandalari CH. Pirs, U. Djems, J. Dbyui va boshqalardir. Ularning ta'limotida olamning o'zgaruvchanligi o'z ifodasini topgan. Ular tajribani turli tasodif va kutilmagan vaziyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ongimizdan tezkor qarorlarni qabul qilishni talab etuvchi hodisalar majmui sifatida ta'riflaydilar.

Insonning xatosiz faoliyat ko'rsatishi uchun uning xatti-harakatlarini boshqarib turuvchi vosita — intellektdir. J. Dbyui fikricha, intellekt insonni o'rab turgan olamdan nusxa oladi, hamda unga muhitga moslashishga yordam beradi. Pragmatizm falsafasining maqsadi insonga olamda o'z o'rnini topishga yordam berishdan iborat. Dbyui tajriba natijasining «foydali» tomoniga e'tiborini qaratadi. Djems fikricha, haqiqat foydali bo'lgan narsa yoki hodisadir.

Pragmatizm AQSH ijtimoiy-madaniy hayotining qadriyatlarini ifoda etib, u yerdagi ishbilarmonlar, menedjerlar, siyosatchilar va davlat arboblari o'rtasida keng tarqalgan. Amerikaliklar bu ta'limotning nazariyotchilarini halqning dunyoqarashi o'zgarishida, hozirgi amerikacha hayot tamoyillarini keng ommaga singdirishda katta xizmat qilgan faylasuflar sifatida qadrlaydilar. Masalan, J. Dьyuini «Amerikaning Arastusi» deya hurmat bilan tilga oladilar. Jamiyat taraqqiyotiga oid g'oyalar tahlili falsafada antik davrlardan, Suqrot va Aflotun zamonlaridan boshlab shakllana boshlagan. Bu g'oyalarning rivojida XVII-XVIII asrlarda yashagan italiyalik faylasuf Dj. Viko, XVIII asrda yashagan I.G. Gerder va ayniqsa, nemis falsafasining yirik namoyondasi Xegel katta hissa qo'shganlar. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi ta'limotlar orasida tadrijiy taraqqiyot va inqilobiy sakrashlar yo'lidan borishni ilgari suradigan ta'limotlar talaygina. Ko'pchilik tadrijiy yo'lni ma'qul ko'radi va biz yuqorida tilga olgan faylasuflarning aksariyati ana shunday qarash tarafdori.

Afsuski, boshqacha qaraydigan ta'limotlar ham bor. Yangi davr falsafasida tarqalgan ana shunday oqimlardan biri **marksizm** bo'lib, uning asoschisi nemis iqtisodchisi va faylasufi K. Marksdir (1818 — 1883). Uning ijtimoiy falsafasi kapitalizmda sinfiy kurashning mutlaq antogonizm darajasiga ko'tarilishi, oxir-oqibat proletariat diktaturasining o'rnatilishi va shu yo'l bilan sinfsiz jamiyatga o'tishni targ'ib qiladigan va real hayotni aks ettirmaydigan nazariyadir.

Keyinchalik sobiq ittifoqda hukmron mafkuraga aylangan bu ta'limot dastlab K. Marks va F. Engels yozgan «Kommunistik partiya manifesti»da bayon qilingan. Uning nazariy asoslari K. Marksning «Kapital», F. Engelsning «Anti-Dyuring» va «Tabiat dialektikasi» asarlarida ta'riflab berilgan bo'lib, ijtimoiy hayotda salbiy oqibatlarga olib keldi. U borliq tushunchasini materiya bilan aynanlashtirgan, ruhni butunlay inkor qilgan, materializm va ateizmni mutlaqlashtirgan.

Bu ta'limotning K. Kautskiy, V. Plekhanov boshliq mo'tadil tarafdorlari keyinchalik sotsial-demokratiyaga ko'proq moyil bo'lishdi. Rossiyada V. Lenin boshchiligidagi tarafdorlari esa sinfiy kurash va proletariat diktaturasini mutlaqlashtirish yo'lidan bordilar. Bu o'z navbatida, inqlobiy sakrash yo'lini tanlashga olib keldi va Rossiyani terror yo'lga boshladi. Oqibatda esa bu tipdagi dunyoqarash jamiyat va xalqlar taqdirida g'oyat salbiy o'rin tutishi ma'lum bo'ldi. Farbda Marksning hozirgi davrdagi tarafdorlari «**neomarksizm**» oqimini tashkil etadilar. Ko'pgina neomarksistlar sinfiy kurashni mutlaqlashtirmaslik, inqlobiy emas, tadrijiy sakrash yo'lidan borish ustuvor bo'lishi lozimligini e'tirof eta boshladilar. Ammo ularning asl qarashlarini jamiyat, millat emas, sinf va ular o'rtasidagi kurash taraqqiyoti belgilaydi, degan o'sha ta'limotga bog'liqligicha qolmoqda.

Alohida ta'kidlash lozimki, yaqingacha sobiq Ittifoq va uning ittifoqchilari hududida mutlaq hukmron bo'lgan mafkuraning taqdirini o'rganish, uning tarixidan xolisona xulosa chiqarish, bu ta'limotning qanday ayanchli natijalarga olib kelganini bilib qo'yish ham foydadan xoli emas. Bu borada lom-mim demaslik foyda bermaydi. Zero, ta'limotlar tarixi — insonlar, ularning taqdiri, yuksalishi yoki tanazzuli tarixidir. Bu yuksalish yoki tanazzul ko'p hollarda muayyan g'oyalar, mafkuralar ta'sirida ro'y beradi. Gohida minglab, millionlab kishilarni maftun qilgan ba'zi g'oyalar yoki mafkuralar oxir-oqibat ana shu millionlarning zavoliga sabab bo'lishi ham mumkin. Biz qisqa tahlil qilgan marksizm va keyinroq u paydo bo'lgan hududda shakllangan natsional sotsializm (fashizm) nazariyalari ana shu tarixiy haqiqatni isbotlaydi. Bu haqiqatning ostida esa biror ta'limot qadriyatlarini mutlaqlashtirish, albatta, muayyan «izm»ga, aqidaparastlikka olib keladi, bu o'z navbatida jaholat va qabohatga eltuvchi yo'ldir, degan umuminsoniy tamoyil yotadi.

XX asrga kelib jamiyat tarixiy taraqqiyotiga oid ta'limotlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy taraqqiyotning plyuralistik modeli, «lokal madaniyatlar» hamda «tsivilizatsiyalarning xilma-xilligi» kontseptsiyalari shakllandi. Ularga ko'ra, jamiyat tarixi — o'ziga xos madaniyatlarning birligi emas, xilma-xilligidan iborat. SHu ma'noda u organik tabiatdagi hayot shakllarining rang-barangligiga qiyoslanadi. Demak, tabiat qanday xilma-xillikning birligi bo'lsa, jamiyat ham ana shunday rang-baranglikning uyg'unligidir. Jamiyatda ham hamma va har bir narsaning o'z o'rnini bor.

Bu g'oyalar nemis faylasufi va sotsiologi O. SHpengler (1880-1936) va ingliz tarixchisi A. Toynbi (1889-1975) ta'limotlarida har tomonlama asoslab berishga harakat qilindi. O. SHpengler o'zining «Evropaning so'nishi» nomli asarida tarixni bir — biridan mustasno bo'lgan madaniyatlar majmuidan iborat, deb hisoblaydi hamda mukammal rivojlangan 8 xil madaniyatni ko'rsatadi. Bular: arab, hind, vavilon, xitoy, yunon-rim, vizantiya-arab madaniyatlari, mayya va russ-sibir madaniyatlaridir. Madaniyatlar o'ziga xos diniy asosga ega bo'lib, ularning har biri qat'iy biologik maromga (ritmga) bo'ysunadi. Va quyidagi asosiy davrlarni bosib o'tadi: tug'ilish va bolalik, yoshlik va kamolot, qarilik va so'nish. Buning asosida madaniyatlar rivojining ikki bosqichi mavjud, deb ko'rsatiladi. Birinchi bosqich — madaniyat ravnaqi (sof madaniyat) va ikkinchisi — uning tanazzuli («tsivilizatsiya»).

O. SHpengler yevropotsentrizmga, ya'ni barcha madaniyatlarni yevropalashtirish g'oyasiga qarshi chiqdi. Har bir madaniyatning o'ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g'oyasini mutlaqlashtirdi. Ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ham mavjudligiga kam e'tibor qaratdi.

Yana bir olim A. Toynbi esa o'zining 12 jildlik «Tarixni o'rganish» asarida madaniyatlarning lokal rivojlanish g'oyasini davom ettirdi. Biroq uning ta'limoti SHpengler kontseptsiyasidan o'zining ikki jihati bilan farqlanadi. Birinchidan, insonda o'z hayotini erkin belgilash imkoniyati mavjudligini, tarixiy taraqqiyot zaruriyat va erkinlikning o'zaro birligidan iborat ekanligini nazarda tutsa, ikkinchidan, tarixiy taraqqiyotning davriy modeli dunyoviy dinlar (buddizm, xristianlik, islom) ning barcha xalqlarni yakinlashtiruvchi va jiplashtiruvchi bosh omil g'oyasi bilan boyitilgan.

Toynbi Farb xristian tsivilizatsiyasining tanazzulga qarab borayotganligini ko'rsatib, uning oldini olish yo'lini ma'naviy birlikda, jahon xalqlarining yagona dinni qabul qilishlarida, deb hisoblaydi.

Umuman olganda, hozirgi paytda jamiyat taraqqiyotining tsivilizatsion kontseptsiyasi ko'pchilik faylasuflar tomonidan tan olinmoqda. Xususan, industrial va postindustrial jamiyat g'oyalari, ayniqsa, ommaviylashib bormoqda. Unga ko'ra, jamiyat taraqqiyotining bosh mezon — sanoatning rivojlanish darajasidir.

Shunday qilib, XX asrga kelib rang-barang falsafiy ta'limotlar shakllandi. Ularning barchasini mazkur mavzuda ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmasa-da, yuqorida bayon etilgan ma'lumotlardan falsafiy plyuralizm haqida, falsafa zamon va makon bilan bog'liq murakkab fan ekanligi to'g'risida muayyan xulosaga kelish mumkin. Bu sohadagi bilimlarimiz, o'z navbatida bizning milliy g'oya va mafkuramizni shakllantirishga, ma'naviyatimizning boyib, mustahkamlanib borishiga, intellektual kamolotimizga xizmat qiladi.

**E`tiboringiz uchun Rahmat!**